



JAHON SAVDO TASHKILOTIDA XUSUSIY STANDARTLAR UCHUN JAVOBGARLIK

Zarnigor Farmanova

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7317526>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2022

Accepted: 11th November 2022

Online: 13th November 2022

KEY WORDS

Jahon savdo tashkiloti, ommaviy va xususiy standartlari, Savdodagi texnik to'siqlar, sanitariya va fitosanitariya choralari, javobgarlik.

ABSTRACT

Xalqaro savdoda Sanitariya va fitosanitariya choralari qo'llash to'g'risidagi bitim va savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi bitim bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlari va transmilliy kompaniyalar tomonidan o'rnatiladigan xususiy sektor standartlari ham tobora kuchayib bormoqda. Aslida, ular ushbu bitimlar bilan bir xil rol o'ynaydi - ular import qilinadigan tovarlar sifatini tartibga soladi. Biroq, muammo shundaki, bu standartlar ko'pincha davlat standartlariga qaraganda qattiqroq bo'lib, bu yetkazib beruvchilarga salbiy ta'sir qiladi (asosan rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda). Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo rivojlangan davlatlar, o'z navbatida, javobgarlikdan qochishga harakat qilmoqda. Boshqa tomondan, bu talablar iste'molchilar manfaatlarini himoya qiladi, deb ta'kidlanadi. Faqat bir narsa aniq – ushbu xalqaro shartnomalardagi normalar nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan to'liq bajarilmayapti. Hozirda JST bu vaziyatdan chiqish yo'lini topa olmadi. Ehtiyotkorlik bilan va izchil harakat qilib, a'zo davlatlar yechim topish yo'lidagi faqat dastlabki qadamlarni belgilab oldilar.

Bu mavzuni yoritishini boshlashdan oldin standart nimaligini bilib olsak. Standard nima? Standart terminologiyasiga turli xil hujjatlarda turlicha keltirishgan. Xususan: **Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO (2004))**ga ko'ra, standart - bu konsensus asosida tuzilgan va tan olingan organ tomonidan tasdiqlangan, umumiy va takroriy foydalanishni, qoidalarni, ko'rsatmalarni, faoliyat yoki ularning natijalariga erishish uchun xususiyatlarni

nazarda tutadigan hujjat". Shuningdek, u shunday ta'kidlaydi: "Standartlar ilm-fan, texnologiya va tajribaning jamlangan natijalariga asoslangan bo'lishi va jamiyat uchun maqbul manfaatlarni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak".

JSTning majburiy bo'lgan kelishuvlari – **Sanitariya va fitosanitariya choralari qo'llash to'g'risidagi bitim (bundan keyin SPS bitimi) va savdodagi texnik to'siqlar**



to'g'risidagi bitim (bundan keyin TBT kelishuvi)ga ko'ra, "standart - bu xalqaro savdo qoidalariga muvofiq bajarilishi majburiy bo'lmagan mahsulotlar, tegishli jarayonlar va ishlab chiqarish usullari uchun umumiy va takroriy foydalanish qoidalari, ko'rsatmalari yoki xususiyatlarini ko'rsatadigan, tan olingan tashkilot tomonidan tasdiqlangan hujjat. Shuningdek, u mahsulot, jarayon yoki ishlab chiqarish usuliga nisbatan qo'llaniladigan terminologiya, belgilar, qadoqlash, markalash yoki yorliqlash talablarini o'z ichiga olishi yoki ular bilan bog'liq bo'lishi mumkin".

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, demak, standart – mahsulotning ishlab chiqarish usullari, jarayonlarini, ularga tegishli qoidalar, ko'rsatmalar va xususiyatlarni o'z ichiga oladigan hujjat hisoblanadi. Standartlar ikki xil:

- ❖ ommaviy (davlat tomonidan o'rnatiladigan, odatda "texnik reglamentlar" deb ataladigan) standartlar;

- ❖ xususiy standartlarga bo'linadi.

Ommaviy standartlar majburiy, xususiy standartlar esa ixtiyoriy hisoblanadi.¹ Ommaviy standartlaridan farqli o'laroq, bu xususiy standartlar majburiy emas, lekin ular sanoat normasiga aylangandan so'ng, ular amalda majburiy bo'lib qoladi va shu bilan ommaviy va xususiy standartlar o'rtasidagi farqni yo'qotadi.

SPS bitimi bu farqni ko'rsatmaydi. Misol uchun, SPS bitimining ilovasi 1.1-moddasi. Sanitariya va fitosanitariya choralari:

(a) a'zo davlat hududida hayvonlar yoki o'simliklarning hayoti yoki sog'lig'ini zararkunandalar, kasalliklar, kasallik tashuvchi yoki kasallik qo'zg'atuvchi organizmlarning kirib kelishi, paydo

bo'lishi yoki tarqalishi natijasida yuzaga keladigan xavflardan himoya qilish;

(b) a'zo davlat hududida oziq-ovqat, ichimliklar yoki ozuqa moddalaridagi qo'shimchalar, ifloslantiruvchi moddalar, toksinlar yoki kasallik qo'zg'atuvchi organizmlardan kelib chiqadigan xavflardan inson yoki hayvonlarning hayoti yoki sog'lig'ini himoya qilish;

(c) a'zo davlat hududida inson hayoti yoki sog'lig'ini hayvonlar, o'simliklar yoki ularning mahsulotlari tomonidan yuqadigan kasalliklar yoki zararkunandalarning kirib kelishi, paydo bo'lishi yoki tarqalishidan kelib chiqadigan xavflardan himoya qilish; yoki

(d) zararkunandalarning kirib kelishi, paydo bo'lishi yoki tarqalishi natijasida a'zo davlat hududida boshqa zararlarining oldini olish yoki cheklash.²

Bir qarashda, ushbu qoida xususiy standartlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin, "choralar" ta'rifi barcha tegishli qonunlar, qarorlar, qoidalar, talablar va tartiblarni o'z ichiga oladi. A ilovasining ta'riflari xususiy standartlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lsa-da, Bitim qoidalarining o'zi A'zolarga taalluqlidir. Xo'sh xususiy standart bizga nima uchun kerak bo'lgan?

Xususiy standartlar qishloq xo'jaligida doimo mavjud bo'lgan, ammo 1990-yillarning boshidan beri ularning soni sezilarli darajada oshdi. Globallashuvning rivojlanishi bilan ushbu turdagi standartlar xalqaro savdoda tobora ko'proq qo'llanila boshlandi. Raqamlar mavjud bo'lmasa-da, hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi

¹ Private standards: relevant definitions and a typology, <https://www.fao.org/3/i1948e/i1948e02>;

² The WTO Agreement on the Application of Sanitary and Phytosanitary Measures (SPS Agreement), Annex A, https://www.wto.org/english/tratop_e/sps_e/spsagr_e.htm#fnt4;



eksportining katta qismi turli xil xususiy standartlarga mos kelishi kerakligi taxmin qilinmoqda. Shunga qaramay, texnik reglamentlarga nisbatan qo'llaniladigan ko'p tomonlama savdo qoidalari hozirgacha xususiy standartlarga nisbatan qo'llanilmagan. JST a'zolari **SPS bitimi** qishloq xo'jaligi to'g'risidagi bitim tomonidan yuklangan majburiyatlarni chetlab o'tish uchun ishlatilishi mumkinligidan xavotirda edilar, ayniqsa bozor sohasida. **SPS bitimi** oziq- ovqat xavfsizligi bilan bog'liq turli xil yuqori darajadagi muammolar iste'molchilarning nazorat qiluvchi organlarga ishonchining pasayishi natijasida paydo bo'lgan. Natijada savdodagi xususiy standartlar atrofida yanada muhimroq muammolar paydo bo'ldi. **Tariflar va savdo bo'yicha kelishuvning (GATT) 20-moddasi b bandida** a'zo davlatlarga inson, hayvonot va o'simliklarning hayoti yoki sog'lig'ini himoya qilish uchun bir qator vakolatlar bergan.³ Ammo ushbu vakolatdan davlatlar kamsitishga yo'l qo'ymasdan va yashirin proteksionizm sifatida ishlatmasliklari majburiyatini oladi. Shuningdek, oziq- ovqat xavfsizligi, hayvonlar va o'simliklar salomatligi va xavfsizligi va umuman mahsulot standartlari bilan bog'liq yana ikkita maxsus JST kelishuvlari mavjud. Bu ikki kelishuvlar yuqorida aytib o'tganimiz:

✚ **SPS bitimi;**

✚ **TBT kelishuvi.**

Bu ikkala kelishuv doirasida xususiy standartlar masalasi keng muhokama qilingan.

Xususiy standartlar birinchi marta JST doirasida 2005-yil iyun oyida **SPS bitimi**

to'g'risidagi yig'ilishida ko'tarilgan. Unda Sent-Vinsent va Grenadinlar Birlashgan Qirollikka davom etayotgan banan eksporti endi Eurep/Gap sertifikatiga mos kelishi haqida xabar berishdi.⁴ Unda standartlar xususiy tashkilotlar yoki nodavlat tashkilotlar (NNT) emas, balki hukumatlar tomonidan kiritilishi kerakligi ta'kidlangan va **SPS bitimi** doirasiga kirgan bu standartlar Yevropa Ittifoqining (Yevropa Ittifoqi) oziq-ovqat qonunchiligining bir qismimi yoki yo'qligini so'radi. Yevropa Ittifoqi bunga javoban Eurep/Gap Yevropa Ittifoqi organi emas, balki xususiy sektor konsorsiumi ekanligini va shuning uchun ularning standartlari Yevropa Ittifoqi standartlari emasligini va bu standartlarga e'tiroz bildirsa olmasligini, chunki ular Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga zid emasligini ta'kidladi.

TBT kelishuvi texnik reglamentlar, standartlar va muvofiqlikni baholash tartib-qoidalarining kamsitishsiz bo'lishini va savdoga keraksiz to'siqlarni yaratmasligini ta'minlashga qaratilgan.⁵

TBTning 4-moddasiga asosan "a'zolarga o'z hududlaridagi standartlashtirish bo'yicha nodavlat organlari, shuningdek, o'z hududlarida bo'lgan mintaqaviy standartlashtirish organlarini ta'minlash uchun ular uchun mavjud bo'lgan oqilona choralarni ko'rish" degan majburiyat yuklanadi. A'zolar bitimning 3-ilovasida keltirilgan Yaxshi amaliyot kodeksi(the Code of Good Practice)ini qabul qildi. Ushbu majburiyat standartlashtiruvchi

⁴ Проблемы ответственности государств за стандарты частного сектора в ВТО, М. Р. Салия, <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-otvetstvennosti-gosudarstv-za-standarty-chastnogo-sektora-v-vto/viewer>;

⁵ https://www.wto.org/english/tratop_e/tbt_e/tbt_e.htm;

³ The General Agreement on Tariffs and Trade (GATT 1947), Article XX: General Exceptions, https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/gatt47_02_e.htm#articleXX;



organ Kodeksni qabul qilgan-qilmaganligidan qat'iy nazar amal qiladi.⁶ Shuningdek, 1.8-ilovada "nodavlat notijorat organi" deganda "markaziy davlat organi yoki mahalliy davlat hokimiyati organidan boshqa organ, shu jumladan, texnik reglamentni amalga oshirish bo'yicha qonuniy vakolatga ega bo'lgan nodavlat organi" tushuniladi. Kodeks standartlashtirish bo'yicha nodavlat organlari kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik uchun, ya'ni:

✚ xalqaro savdoga keraksiz to'siqlardan qochish;

✚ mavjud xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish;

✚ tegishli xalqaro standartlashtirish organlari bilan hamkorlik qilish;

✚ standartlashtirish bo'yicha boshqa organlarning ishini kuchaytirishga yo'l qo'ymaslik;

✚ mahsulot talablari uchun standartlarni dizayn yoki tavsifiy xususiyatlardan ko'ra ishlash nuqtai nazaridan belgilash;

✚ ochiqlikni ta'minlash va manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashish kabi tamoyillariga rioya qilishni talab qiladi.

Xususiy standartlarning ko'tarilishi ortidagi asosiy harakatlantiruvchi kuchlar:

- ✓ savdoning globallashuvi;
- ✓ axborot texnologiyalaridagi taraqqiyot;
- ✓ oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va chakana savdo tarmoqlarida konsentratsiya;
- ✓ iste'molchilarning xohish-istaklarining o'zgarishi;

✓ yirik rivojlangan bozorlarda tartibga soluvchi o'zgarishlardir.

2011-yil 9-iyunda Savdodagi texnik to'siqlar qo'mitasi tomonidan xalqaro standartlarni ishlab chiqishda xalqaro standartlarni belgilash organlari rioya qilishlari kerak bo'lgan oltita tamoyil ishlab chiqildi. Bular:

- shaffoflik;
- ochiqlik;
- xolislik va konsensus;
- samaradorligi va dolzarbligi;
- izchillik;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning muammolarini hal qilish.⁷

SPS qo'mitasi doirasida ham bir nechta mukomalar bo'lgan va nihoyat ishchi guruhning uchinchi bosqich hisoboti asosida xususiy standartlar bo'yicha chora-tadbirlar to'plamini kelishib oldi va quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaror qildi:

❖ SPS qo'mitasi SPS bilan bog'liq xususiy standartlarning ishchi ta'rifini ishlab chiqishi va har qanday muhokamani ular bilan cheklash;

❖ SPS qo'mitasi SPS bilan bog'liq xususiy standartlarni ko'rib chiqishdagi tegishli o'zgarishlar to'g'risida Kodeks, Butunjahon hayvonlar salomatligi tashkiloti (bundan keyin OIE) va O'simliklarni himoya qilish bo'yicha xalqaro konventsia (bundan keyin IPPC)ni muntazam ravishda xabardor qilishi va ushbu tashkilotlarni SPS qo'mitasini o'z organlaridagi tegishli o'zgarishlar haqida muntazam ravishda xabardor qilish;

⁷ Ilova B, G/TBT/1/Rev.10, 46-48-bet, https://docs.wto.org/dol2fe/Pages/FE_Search/FE_S_S009-DP.aspx?language=E&CatalogueIdList=234947,129845,121467,101299,15476&CurrentCatalogueIdIndex=3&FullTextHash=1&HasEnglishRecord=True&HasFrenchRecord=True&HasSpanishRecord=True;

⁶ Agreement on Technical Barriers to Trade, Article 4: Preparation, adoption and application of standards, https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/17-tbt_e.htm#articleIV;



❖ SPS qo'mitasi Kotibiyatni SPS bilan bog'liq xususiy standartlar bo'yicha muhokamalar uchun muhim bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa JST forumlaridagi o'zgarishlar to'g'risida Qo'mitaga xabardor qilish;

❖ A'zolar SPS qo'mitasida ko'tarilgan muammolarga sezgir bo'lishlari va Kodeks, OIE va IPPC tomonidan o'rnatilgan xalqaro standartlarning muhimligini ta'kidlash uchun o'z hududlarida SPS bilan bog'liq xususiy standartlar bilan bog'liq bo'lgan subyektlar bilan muloqot qilish;

❖ SPS qo'mitasi xalqaro SPS standartlari muhimligini ta'kidlovchi axborot materiallarini ishlab chiqish va tarqatishni qo'llab-quvvatlash uchun Kodeks, OIE va IPPC bilan ishlash imkoniyatini o'rganishi kerak.

SPS bilan bog'liq xususiy standartlar SPS kelishuvining A1-ilovasiga⁸ to'g'ri keladigan standartlar sifatida belgilangan. Shuni ta'kidlash kerakki, SPS kelishuvi 13-moddasiga asosan "A'zolar ushbu Shartnoma bo'yicha Shartnomada ko'rsatilgan barcha majburiyatlarga rioya qilish uchun to'liq javobgardirlar. A'zolar ushbu Bitim qoidalariga markaziy hukumatdan tashqari boshqa organlar tomonidan rioya etilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ijobiy chora-tadbirlar va mexanizmlarni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar. A'zolar o'z hududlaridagi nodavlat tashkilotlar, shuningdek, o'z hududlaridagi tegishli subyektlar a'zo bo'lgan mintaqaviy organlar ushbu Bitimning tegishli qoidalariga rioya qilishlarini ta'minlash uchun o'zlari uchun mavjud bo'lgan oqilona choralarni ko'radilar. Bundan tashqari,

a'zolar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bunday mintaqaviy yoki nodavlat tuzilmalarni yoki mahalliy hukumat organlarini ushbu Bitim qoidalariga zid ravishda harakat qilishni talab qiladigan yoki rag'batlantiradigan choralarni ko'rmaydilar. A'zolar sanitariya yoki fitosanitariya choralarni amalga oshirishda nodavlat tashkilotlarning xizmatlaridan faqat ushbu subyektlar Bitim qoidalariga rioya qilgan taqdirdagina tayanishlarini ta'minlaydilar".⁹

Xususiy standartlar ko'pincha ko'rsatma harakterga ega bo'lgani uchun tashvish tug'diradi. SPS shartnomasi bo'yicha xususiy standartlarga ba'zi nazoratlarni o'rnatishga urinishlar bilan bog'liq muammolardan biri shundaki, u davlat ishtirokchilari (a'zolar) va xususiy shaxslar (nodavlat tashkilotlar) o'rtasidagi farqni yo'qotadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlar uchun tashvishlanish uchun yetarli sabablar mavjud. Rivojlangan mamlakatlar ushbu standartlarga ijobiy qarashadi. Shu munosabat bilan asosiy savol tug'iladi: nodavlat tashkilotlar tomonidan SPS bitimi qoidalarini buzganlik uchun davlatlar javobgarmi? 13-moddaning birinchi qismida shunday deyilgan "A'zolar ushbu Shartnomada belgilangan barcha majburiyatlarga rioya qilish uchun to'liq javobgardirlar". Sud amaliyotida xususiy subyektlarga nisbatan qo'llashga kelsak, 13-moddaning yakuniy jumlasini eslash muhim - "A'zolar sanitariya yoki fitosanitariya choralarni amalga oshirishda nodavlat

8

https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/ai17_e/sps_anna_jur.pdf;

⁹ The WTO Agreement on the Application of Sanitary and Phytosanitary Measures (SPS Agreement), Article 13,

https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/ai17_e/sps_art13_jur.pdf;



tashkilotlarning xizmatlaridan faqat ushbu subyektlar Bitim qoidalariga rioya qilgan taqdirdagina tayanishlarini ta'minlaydilar". A'zolarining xalqaro mas'uliyati bu holatda aniq bo'lsa-da, a'zo va nodavlat tashkilot o'rtasida hech qanday aloqa borligi yoki yo'qligi aniq emas. Bunday holda, 13-modda a'zolaridan "o'z hududlaridagi nodavlat tashkilotlarning ... ushbu Bitimning tegishli qoidalariga rioya qilishlarini ta'minlash uchun ular uchun mavjud bo'lgan oqilona choralarni" ko'rishni talab qiladi. Bu modda qo'llanilishi bo'yicha Avstraliya va Kanada o'rtasida bo'lib o'tgan Salmon balig'ini import qilish bo'yicha sud ishida ko'rishimiz mumkin.¹⁰ Bu ishda Avstraliya nafaqat 13-modda, balki umumiy xalqaro huquq doirasida ham Tasmaniya chorasi uchun javobgar ekanligini aniq ko'rsatdi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganimizdek, xususiy standartlar bilan bog'liq muammo ularning an'anaviy ravishda davlat mas'uliyati sifatida ko'rilgan sohada qabul qilinishidir - bunday standartlar iste'molchilarning davlat standartlariga ishonchini yo'qotishiga olib kelgan bir qator oziq-ovqat mojarolarining aksidir. Xususiy tomonlarning ushbu an'anaviy jamoat maydoniga kirib kelishi JSTga savdoni liberallashtirish va jamoat manfaatlarini himoya qilish o'rtasidagi muvozanatni saqlab qolishning yangi yo'lini topish zarurligini ko'rsatadi - bu muvozanat SPS bitimi Muqaddimasining birinchi qismida yana bir bor tasdiqlangan.¹¹

¹⁰ DS18: Australia — Measures Affecting Importation of Salmon, https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/cases_e/ds18_e.htm;

¹¹ The WTO Agreement on the Application of Sanitary and Phytosanitary Measures (SPS Agreement), https://www.wto.org/english/tratop_e/sps_e/spsagr_e.htm;

Quddus Ibroniyy Universiteti - huquq fakulteti katta o'qituvchisi Moshe Hirsch shunday deydi:

"O'tmishda savdoning kengayishiga jiddiy tahdidlar davlat ishtirokchilari tomonidan yuzaga kelganligi aniq bo'lsa-da, oziq-ovqat mahsulotlarining zamonaviy savdosiga tobora ko'proq xususiy xavfsizlik standartlari ta'sir ko'rsatmoqda, ularning ba'zilar muhim notarif to'siqlarini tashkil qiladi. JST a'zolarini xususiy standartlarni o'rnatish organlari oldidagi har qanday majburiyatlardan ozod qilish, JSTning bunday standartlar xalqaro savdoni asosli ravishda cheklashini baholash qobiliyatini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Ushbu sohadagi xususiy standartlar JST qonunchiligining tekshiruvidan chetlatish uchun juda muhim".¹²

Moshe Hirschning ta'kidlashicha, bunga SPS bitimiga o'zgartirish kiritish orqali emas, balki nizolarni hal qilish organlari tomonidan uning qoidalarini talqin qilish orqali erishish mumkin. Biroq, yuqorida aytib o'tilganidek, bu mumkin bo'lgan hodisa emas.

Kolumbiya huquq maktabi o'qituvchisi Petros Mavroidis va Qirolicha universiteti siyosatshunoslik maktabi o'qituvchisi Robert Wolfe bu yerda muqobil taklif bilan chiqdi, ular har bir a'zo o'z yurisdiksiyasidagi xususiy standart organlariga qanday munosabatda bo'lishini ko'rsatuvchi "Ma'lumotnoma"ni yaratish orqali qarama-qarshi standartlarning shaffofligini oshirishga qaratilgan ko'p tomonlama muzokaralar olib borishlari kerakligini ta'kidladilar.¹³ Hujjat

¹² [Private Food Safety Standards, Obligations of Governments, and Unresolved Questions in Contemporary WTO Law by Moshe Hirsch :: SSRN](#);

¹³ Private Standards and the WTO: Reclusive No More (EUI Working Paper RSCAS 2016/17) available at SSRN:



mazmuniga kelsak, u a'zolar javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan asosni belgilaydi - a'zolar o'zlarining xususiy sektorida tegishli ehtiyotkorlikni ko'rsatishlari va kelishilgan tamoyillarni amalga oshirishlari talab qilinadi.

Ularning maqsadi savdo tizimida JSTning markaziy rolini (va uning tamoyillarini) saqlab qolish va shu bilan birga xususiy standartlarning ortib borayotgan roliga moslashish uchun ichki islohotlarni amalga oshirishdir. Taklif etilayotgan ma'lumotnoma yangi boshqaruv tuzilmasi orqali davlat-xususiy farqni tugatishni ko'rsatadi. Ma'lumotnomaning mazmuni va, xususan, kelishilgan tamoyillarga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, bu yerda SPS Qo'mitasida allaqachon katta ishlar qilingan. Biroq, bu ishning asosiy qismi a'zolar nima qilishi kerakligidan ko'ra SPS qo'mitasi nima qilishi kerakligiga ishora qilgan. SPS qo'mitasining kelishilgan harakat nuqtalaridan biri a'zolarini "o'z hududlaridagi SPS bilan bog'liq xususiy standartlarga aloqador bo'lgan subyektlar bilan ularni SPS qo'mitasida ko'tarilgan muammolarga e'tiborli bo'lishga va Kodeks, OIE va IPPC xalqaro standartlar tomonidan o'rnatilgan xalqaro standartlarning muhimligini ta'kidlash uchun aloqa o'rnatishga" undadi". Bunday "sensibilizatsiya", yuqorida aytganimiz, TBT qo'mitasining xalqaro standartlarni tayyorlashning olti tamoyili bo'yicha qaroriga havolani o'z ichiga olishi mumkin.¹⁴ Shuningdek, u rivojlanayotgan davlatlar tomonidan xususiy standartlar bo'yicha ko'tarilgan xavotirlarni ta'kidlashi

mumkin. Masalan, ayrim talablarning ilmiy asoslanmaganligi, xalqaro standartlardan farqi va standartlarning ko'pligi hamda ular o'rtasidagi uyg'unlashuvning yo'qligi. Hozirgi vaqtda a'zolar SPS Qo'mitasiga ushbu muhokamalar haqida hisobot berishadi. Ammo hali haqiqiy taraqqiyotga erisha olishgani yo'q. Ushbu masala bo'yicha Mavroidis va Wolfe tomonidan ilgari surilgan Ma'lumotnoma yondashuvi samaradorligini oshirish uchun monitoring mexanizmini joriy etish taklif etildi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Urugvay raundining yakunlanishidan oldin SPS kelishuvi xavfsizlik standartlarini pasaytirishga olib kelishi mumkinligi haqidagi taklifga javoban GATT Kotibiyati ushbu Bitimning uchta o'ziga xos xususiyatini ta'kidladi. Masalan, ular hukumatlarni agar bunday standartlar va ko'rsatmalar ilmiy xavflarni baholash asosida yanada qat'iyroq standartlarni joriy etish uchun yetarli bo'lmasa xalqaro standartlar va ko'rsatmalarga mos keladigan chora-tadbirlarni belgilashga undaydigan Bitim qoidalariga ishora qildilar. Kutilmaganda, GATT Kotibiyati xususiy standartlarning eksponentsial o'sishini kuta olmadi va shuning uchun SPS kelishuvi bunday standartlarga hech qanday intizom yuklamasligi asossiz emas. JST xususiy standartlarni belgilovchi organlarning harakatlari JST qonunchiligiga bo'ysunishi mumkinligini inkor etmaydi, ammo bu hukumatning ushbu harakatlardagi ishtiroki darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu haqda fikr yuritir ekanmiz, Argentinadagi Argentina - qoramol terisi eksporti va tayyor chirm importiga ta'sir qiluvchi chora-tadbirlar¹⁵

<https://ssrn.com/abstract=2757567>;

¹⁴https://docs.wto.org/dol2fe/Pages/FE_Search/FE_S_S009DP.aspx?language=E&CatalogueIdList=123444,123017&CurrentCatalogueIdIndex=1&FullTextHash=1&HasEnglishRecord=True&HasFrenchRecord=True&HasSpanishRecord=True;

¹⁵ DS155 Argentina — Measures Affecting the Export of Bovine Hides and the Import of Finished Leather,



bo'yicha bo'lib o'tgan ish JST qonunchiligida himoya qilinadigan narsa savdo oqimlari emas, balki raqobatdosh imkoniyatlarning tengligi ekanligini ta'kidadi. Shunga o'xshab, Amerika Qo'shma Shtatlari bilan bo'lgan — Ayrim kelib chiqqan mamlakat yorlig'i (COOL) talablari¹⁶ ishida Apellyatsiya organi "faqat xususiy shaxslarning qarorlari tufayli yuzaga keladigan zararli ta'sirlarni qo'llab-quvvatlay olmaydi" deb ta'kidlaganida, a'zolarini nodavlat tashkilotlarning xatti-harakatlari uchun javobgarlikka tortadigan nomuvofiqlikni aniqlash uchun TBT kelishuvining talqinini rad etganday tuyuldi". Shunday qilib, xususiy standartlar TBT kelishuvi bo'yicha tekshiruvdan qochib qutulishi mumkin, chunki a'zolar nizolarni hal qilish faoliyati natijasida nodavlat tashkilotlar faoliyati uchun javobgarlikka tortilishi dargumon. Xuddi shunday, SPS qo'mitasi xususiy standartlarning maqbul ta'rifiga erisha olmaganini hisobga olsak, xususiy standartlarni tartibga solish bo'yicha SPS shartnomasiga o'zgartirish kiritish dargumon.

Yuqoridagi ikkala hujjatlar JST Bosh direktori tomonidan xususiy standartlar masalasida Savdo siyosatini ko'rib chiqish mexanizmi (bundan keyin TPRM)¹⁷ga havola sifatida oldinga yo'lni tavsiya qildi. TPRM a'zolar SPS va TBT kelishuvlarining asosiy falsafasiga rioya qilish uchun o'z hududlarida tashkil etilgan xususiy

standartlarni o'rnatish organlariga nisbatan oqilona va tegishli choralarni ko'rganliklarini ta'minlash uchun davlatlar tegishli e'tiborni amalga oshirganmi yoki yo'qligini ko'rib chiqadi. Bu falsafa shundan iboratki, qabul qilingan chora-tadbirlar o'z maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan eng kam savdoni cheklovchi bo'lishi kerak. Shuningdek, JST qoidalari tabiatini o'zgartirish zarurligini tan oladi. "Stewart and Stewart" yuridik firmasi advokati Terence Stewart izohlaganidek: "Tez texnologik o'zgarishlar dunyosida JSTni o'tgan asrda ishlab chiqilgan qoidalar asosida ishlayotgani bilan tavsiflash mumkin, bu yerda o'zgarish qobiliyati iqtisodiy tizimlar va rivojlanishning turli darajalari ega bo'lgan mamlakatlar va hududlarning tobora kengayib borayotgan a'zoligi va konsensusga asoslangan qarorlar tizimi bilan juda qiyin ekanligini isbotladi".¹⁸

JST qoidalari shakllantirilgandan so'ng xalqaro savdoda keskin o'zgarishlar ro'y berdi, chunki xususiy subyektlar davlat bilan bir qatorda tobora ko'proq harakat qilmoqdalar, bu xalqaro savdoda xususiy standartlarning o'sishidan dalolat beradi. Yuqorida ilgari surilgan taklif ushbu keskin o'zgarishlarni hal qilishning bir mexanizmi bo'lishi mumkin, chunki u muammoni aniqlaydi va ushbu muammo bo'yicha qaror qabul qilish vositasi bo'lib, xususiy standartlar sohasida yanada samaraliroq JSTni yaratadi.

https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/cases_e/ds155_e.htm;

¹⁶ DS384 United States — Certain Country of Origin Labelling (COOL) Requirements,

https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/cases_e/ds384_e.htm;

¹⁷

https://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tprm_e.htm;

¹⁸ T Stewart, "The Future of the WTO – Will Reform Happen in a Timely Manner?" (18 November 2018), <https://www.wita.org/wp-content/uploads/2018/11/11-07-18-final-version-TPS-The-Future-of-the-WTO.pdf>;



References:

1. The WTO Agreement on the Application of Sanitary and Phytosanitary Measures (SPS Agreement);
2. Agreement on Technical Barriers to Trade (TBT);
3. The General Agreement on Tariffs and Trade (GATT 1947);
4. Private standards: relevant definitions and a typology;
5. T Stewart, "The Future of the WTO – Will Reform Happen in a Timely Manner?" (18 November 2018);
6. Проблемы ответственности государств за стандарты частного сектора в ВТО, М. Р. Салия;
7. Private Standards and the WTO: Reclusive No More, Petros C. Mavroidis and Robert Wolfe, EUI Working Paper RSCAS 2016/17;
8. Private Food Safety Standards, Obligations of Governments, and Unresolved Questions in Contemporary WTO law, Moshe Hirsch, Research Paper No. 01-17 March 2017;
9. <https://www.wto.org/>.